

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDAGI QONUNNING
MAZMUN-MOHİYATI HAMDA UNING JAMIYAT VA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI
O‘RNI VA AHAMIYATI

Raxmonov Asadbek Abdulaxat o‘g‘li

Bektemir tumani Adliya bo‘limi Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi

Bosh yuriskonsulti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15099395>

Hozirda kundalik hayotimizda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ko‘p eshitamiz va ba’zida bunday holatlarga duch ham kelganmiz. Bu jamiyat va davlatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri hisoblanib, u bor joyda mavjud sohalar rivojlanishi o‘rniga, orqaga ketadi, adolatsizlik, korrupsiyaviy holatlar ko‘payadi, fuqarolarning davlat organlari va hokimyat organlariga bo‘lgan o‘zaro ishonchi so‘nadi, mutaxassis xodimlar salohiyati ro‘yobga chiqmaydi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar davlat xizmatchilari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda keskinlashib jamiyat va davlat rivojlanishiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Bu borada davlat organi va tashkiloti xodimlarining manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar haqida xabar berish amaliyoti qilinmaganligi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, ularni aniqlash va tartibga solish bo‘yicha samarali huquqiy mexanizm yaratilmagani bu borada qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etdi¹. Shu sababli, muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yilning 5-iyun kuni “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning imzolanishi manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etish, xususan, uni oldini olish va tartibga solishning aniq tartibi belgilab berdi.

Ushbu qonun bilan qanday munosabatlar manfaatlar to‘qnashuvi deb topilishi va mazkur qonun aynan qaysi subyektlarga va qanday munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishi aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra: **manfaatlar to‘qnashuvi** - shaxsning shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mavjud manfaatlar to‘qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (*ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi*) vaziyat² hisoblanadi.

¹ <https://parliament.gov.uz/articles/2084>

² <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

Mazkur Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek ustav fondida (*ustav kapitalida*) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi. Qonunning amal qilishi quyidagi:

- o'z ustav fondida (*ustav kapitalida*) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan;
- o'z ustav fondida (*ustav kapitalida*) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlariga tatbiq etiladi³.

Ta'kidlash joizki, mazkur Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish bo'yicha cheklovlar ham belgilab qo'yildi.

Xususan, qonunda:

- xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;
- manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;
- biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (*aksiyadori, ishtirokchisi*) bo'lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari mustasno;
- o'zi mehnat (*xizmat*) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga, bundan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda davlat organi yoki boshqa tashkilot nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a'zosi bo'lgan shaxs mazkur davlat organida yoki boshqa tashkilotda xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a'zolidan chiqishi kerak;

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

• o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa;

• o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas⁴.

Bizga ma’lumki, mazkur qonun qabul qilinishidan oldin manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo‘yicha yagona amaliyotni shakllantiruvchi vakolatli organ hamda davlat organlari, muassasalarida va boshqa tashkilotlarda ularni amalga oshirish va nazorat qilishning aniq mexanizmlari belgilanmagan edi. Qabul qilingan *“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”*gi Qonunga asosan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bilan bog‘liq munosabatlarda maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi hamda unga manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ma’muriy bayonnomalarni tuzish vakolati ham berildi.

Agentlik bu borada davlat tashkilotlari o‘z tizimidagi manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini vaqtida aniqlash va ularni tartibga solish to‘g‘risida zarur chora-tadbirlarni ko‘rishda mas’ul etib belgilandi va shu bilan yuqorida aytib o‘tilgan masalalar o‘z yechimini topdi.

Mazkur Qonunning eng asosiy jihati shundaki, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish ikki xil usulda, ya’ni, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya berish mexanizmlari mustahkamlab qo‘yildi.

Qonunda e’tibor qaratiladigan masalalardan biri shuki, agarda davlat xizmatchisi tomonidan o‘zi nazorat qiladigan obyektlarda uning yaqin qarindosh(lar)i ishlaydigan bo‘lsa, mazkur holatning oldini olish uchun xodim bu haqida manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasida ko‘rsatishi hamda yaqin qarindosh(lar)iga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha nazoratni amalga oshirmaslik choralari ko‘rishi kerak. Shu o‘rinda, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar deb kimlar e’tirof etilishi mazkur Qonunda keltirib o‘tilgan bo‘lib, davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs⁵lar shular jumlasiga kiradi.

Shuningdek, Qonunda manfaatlar to'qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'riladigan choralar belgilab qo'yildi. Ular:

o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo'ysunuvidagi davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuviga o'tkazish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko'rib chiqish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta'minlash;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga o'zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to'g'risida takliflar taqdim etish;

xodim tomonidan o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlariga zid bo'lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish⁶dan iboratdir.

Bundan tashqari Qonunga asosan, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi va davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish chog'ida shaxsga doir

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6952742#-6953754>

ma'lumotlarni muhofaza qilish shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi belgilandi.

Mazkur qonundagi yana bir masala shuki, manfaatlar to'qnashuvini sodir etganlik uchun qo'llaniladigan jazo chorasidir. Qonunga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini sodir etganlarga nisbatan eng og'ir jazo ma'muriy javobgarlik etib belgilangan bo'lib, jinoiy javobgarlik ko'rsatilib o'tilmagan. Lekin bir qancha xorijiy davlatlarda manfaatlar to'qnashuvini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Fikrimizcha, davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuviga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish emas, odob-axloq meyorlari o'rgatish va ularga amal qilishini taminlay olishimiz kerak. Finlandiya tajribasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga eng avvalo jamiyatning o'zi jazo beradi. Bunday shaxslar uchun huquqbuzarlikni sodir etganlik juda ham uyatli holat bo'lib, oilasi, qarindosh-urug'lari, do'stlari, mahallasi, xalqi oldida izza bo'lgan va yoshlikdan huquqbuzarlik sodir etmaslik o'rgatilgan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunning mohiyatini anglab yetish nafaqat huquqiy madaniyatni, balki davlat boshqaruvini tizimlashtirish, davlat boshqaruvini zamonaviy tamoyillar asosida qayta qurish uchun strategik asos yaratadi. Shu sababli, ushbu masala nafaqat huquqshunoslar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb bo'lib qolmoqda o'z vaqtida manfaatlar to'qnashuviga qarshi keskin kurashilsa, unga chek qo'yilsa, korrupsiya barham topadi, jamiyat va davlat hayotida o'zgarish hamda rivojlanish bo'ladi. Shu sababli ham mazkur "*Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida*"gi Qonunning qabul qilinishi davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ularni aniqlash va tartibga solishning mukammal va samarali mexanizmlarini joriy qilish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash hamda mamlakatimizning korrupsiyaga oid xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u jamiyat va davlat boshqaruvida adolatlilik, qonuniylik, tenglik va albatta shaffoflikni ta'minlashga, fuqarolarning davlat organlari va mansabdor shaxslariga bo'lgan ishonchini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonuni, 05.06.2024 yildagi O'RQ-931-son;
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6952742#-6953754>
3. <https://parliament.gov.uz/articles/2084>;
4. <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/16829/11660>.